

Dunyoni, unga turli nigohlar bilan qarab anglash mumkin

Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari



O'ZBEKISTON GUMANITAR
JURNALI

№3(111)

2025

JAMOATCHILIK TAHRIR
KENGASHI

Akmal SAIDOV
Rais

Tanzila NARBAYEVA

Firdavs ABDUXOLIQOV

Kamola AKILOVA

Aleksandr JUMAYEV

Aleksey USTIMENKO

Nigina SHERMUHAMEDOVA

TAHRIR HAY'ATI

Nigina RAXIMOVA
Bosh muharrir

Evgeniy ABDULLAYEV

Qalandar ABDURAHMANOV

Viktoriya ALEKSEYEVA

Mansur BEKMURODOV

Karine DJAVAKOVA

Valeriy FEDOROV

Akbar HAKIMOV

Abdugani HOLBEKOV

Nodira LATIPOVA

Ildor MUXTOROV

Dildora AXMEDOVA
Mas'ul kotib

Baxrom MIRKASIMOV

Mukarram NURMATOVA

Shafolat NURULLAYEVA

Rustam SULAYMONOV

Shoxida SODIQOVA

Aziz TATIBOYEV

Dmitriy TROSTYANSKIY

Zarema SHAUKENOVA

ILMIY-AXBOROT NASHRI
Toshkent

The World is Cognizable, if Seen through Different Eyes

Public opinion. Human rights



UZBEKISTAN'S HUMANITARIAN
JOURNAL

№3(111)

2025

EDITORIAL PUBLIC COUNCIL:

Akmal SAIDOV

Chairman

Tanzila NARBAEVA

Firdavs ABDUKHALIKOV

Kamola AKILOVA

Alexander DJUMAEV

Alexey USTIMENKO

Nigina SHERMUHAMEDOVA

EDITORIAL BOARD:

Nigina RAKHIMOVA

Editor-in-Chief

Evgeniy ABDULLAEV

Kalandar ABDURAKHMANOV

Viktoriya ALEKSEEVA

Mansur BEKMURODOV

Karine DJAVAKOVA

Valeriy FEDOROV

Akbar HAKIMOV

Abdughani KHOLBEKOV

Nodira LATIPOVA

Ildar MUKHTAROV

Dildora AKHMEDOVA

Executive Secretary

Bakhrom MIRKASIMOV

Mukarram NURMATOVA

Shafolat NURULLAYEVA

Rustam SULEIMANOV

Shoxida SODIQOVA

Aziz TATIBAEV

Dmitriy TROSTYANSKIY

Zarema SHAUKENOVA

Мир познается, когда на него смотрят разными глазами

Общественное мнение. Права человека



УЗБЕКИСТАНСКИЙ ГУМАНИТАРНЫЙ
ЖУРНАЛ

№3(111)

2025

ОБЩЕСТВЕННЫЙ
РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Акмаль САИДОВ

Председатель

Танзила НАРБАЕВА

Фирдавс АБДУХАЛИКОВ

Камола АКИЛОВА

Александр ДЖУМАЕВ

Алексей УСТИМЕНКО

Нигина ШЕРМУХАМЕДОВА

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Нигина РАХИМОВА

главный редактор

Евгений АБДУЛЛАЕВ

Каландар АБДУРАХМАНОВ

Виктория АЛЕКСЕЕВА

Мансур БЕКМУРОДОВ

Каринэ ДЖАВАКОВА

Нодира ЛАТИПОВА

Ильдар МУХТАРОВ

Дилдора АХМЕДОВА

ответственный секретарь

Бахром МИРКАСИМОВ

Мукаррам НУРМАТОВА

Шафоат НУРУЛЛАЕВА

Рустам СУЛЕЙМАНОВ

Шохида САДЫКОВА

Азиз ТАТЫБАЕВ

Дмитрий ТРОСТЯНСКИЙ

Валерий ФЕДОРОВ

Акбар ХАКИМОВ

Абдугани ХОЛБЕКОВ

Зарема ШАУКЕНОВА

НАУЧНО-ИНФОРМАЦИОННОЕ ИЗДАНИЕ
Ташкент

MUNDARIJA مەزمۇنى	CONTENTS مەزمۇنى	СОДЕРЖАНИЕ مەزمۇنى
TAHRIR HAY'ATIDAN Islohotlar davridagi jamoatchilik kayfiyatining tahlili /8	FROM THE EDITORIAL BOARD Dynamics of public sentiment during the reform period /11	ОТ РЕДКОЛЛЕГИИ Динамика общественных настроений в период реформ /14
BUGUNGI O'ZBEKISTON Nigina Raximova Mustaqillik milliy rivojlanishning asosi sifatida ("O'zbekiston mustaqilligi – 34 yil" sotsiologik tadqiqoti natijalariga ko'ra)	UZBEKISTAN TODAY Nigina Rakhimova Independence as the basis of national development (according to the results of the sociological study "Independence of Uzbekistan – 34 years")	УЗБЕКИСТАН СЕГОДНЯ Нигина Рахимова Независимость как основа национального развития (по результатам социологического исследования «Независимость Узбекистана – 34 года») /17
Shuxrat Bafayev Fuqarolar yig'ini raisining jamoatchilik nazorati borasidagi huquqlari, vakolatlari va vazifalari /25	Shukhrat Bafaev Rights, powers and duties of the chairman of the citizens' assembly on public control	Шухрат Бафаев Права, полномочия и обязанности председателя схода граждан по общественному контролю
Azizbek Tadjibayev, Sirojiddin Imamov Yangi O'zbekistonda yo'lda harakatlanish xavfsizligi masalalari: holat, muammo va qarashlar /31	Azizbek Tadjibaev, Sirojiddin Imamov Problems of ensuring road traffic safety in New Uzbekistan: current situation, challenges and approaches	Азизбек Таджибаев, Сирожиддин Имамов Проблемы обеспечения безопасности дорожного движения в Новом Узбекистане: состояние, проблемы и подходы
IJTIMOIIY TADQIQOTLAR Bekzod Rasulov Siyosiy xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy paradigmalar tahlili /36	SOCIAL STUDIES Bekzod Rasulov Analysis of scientific paradigms on political behavior	СОЦИАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Бекзод Расулов Анализ научных парадигм политического поведения
DEMOKRATIYA UNIVERSITETLARI Sarvarbek Babajanov Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikning falsafiy asosi: jamoatchilik nazorati fenomenining tahlili /49	UNIVERSITY OF DEMOCRACY Sarvarbek Babajanov The philosophical basis of communicative cooperation between civil society and the state: an analysis of the phenomenon of public control	УНИВЕРСИТЕТЫ ДЕМОКРАТИИ Сарварбек Бабажанов Философская основа коммуникативного сотрудничества гражданского общества и государства: анализ феномена общественного контроля

Axunjon Astanov Davlat fuqarolik xizmatchilarining siyosiy madaniyatini takomillashtirishning siyosiy- huquqiy mexanizmlari	Akhunjon Astanov Political-legal mechanisms for improving the political culture of state civil servants /54	Ахунжон Астанов Политико-правовые механизмы совершенствования политической культуры государственных служащих
Oftobxon Raximbayeva Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning shakllanishi va evolyutsiyasi	Oftobkhon Rakhimbaeva The formation and evolution of the competency-based approach /61	Офтобхон Рахимбаева Становление и эволюция компетентного подхода
HUQUQIY MASALALAR: NAZARIYA VA AMALIYOT Karine Djavakova Bolalar va yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini shakllantirish – konstitutsiyaning muhim ustuvor yo‘nalishi	LEGAL THEORY AND PRACTICE Karine Djavakova The formation of children’s and youth’s commitment to national and universal values is an important priority of the constitution	ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА Каринэ Джавакова Формирование у детей и молодежи приверженности национальным и общечеловеческим ценностям – важный приоритет конституции /67
Dilshod Umurzakov Iichki ishlar organlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish /73	Dilshod Umurzakov Improving the legal framework for ensuring transparency and openness in internal affairs agencies	Дилшод Умурзаков Совершенствование нормативно-правовой базы для обеспечения прозрачности и открытости деятельности органов внутренних дел
Azizbek Vaxabov Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslar huquqlarini himoya qilish masalalari: shaxsiy qonunning roli va ahamiyati /78	Azizbek Vakhobov Issues of protecting the rights of individuals in private international law: the role and significance of personal law	Азизбек Вахабов Вопросы защиты прав физических лиц в международном частном праве: роль и значение персонального права
Akrom Saidov O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazoni ijro etish qonunchiligi: shakllanishi, rivojlanishi va takomillashishi tarixi /93	Akrom Saidov Legislation on the execution of criminal punishment in the Republic of Uzbekistan: the history of formation, development and improvement	Акром Саидов Законодательство об исполнении уголовного наказания в Республике Узбекистан: история становления, развития и совершенствования
IQTISODIY DEMOKRATIYA VA BOZOR MUNOSABATLARI Azamat Ktaybekov	ECONOMIC DEMOCRACY AND MARKET RELATIONS Azamat Ktaybekov	ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ДЕМОКРАТИЯ И РЫНОЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ Азамат Ктайбеков

O‘zbekistonning yangi siyosati sharoitlarida Qoraqalpog‘iston tashqi iqtisodiy strategiyasi va investitsion dinamikasi	Foreign economic strategy and investment dynamics of Karakalpakstan in the conditions of the new policy of Uzbekistan	Внешнеэкономическая стратегия и инвестиционная динамика Каракалпакстана в условиях новой политики Узбекистана /100
AYOLLAR DUNYOSI. DUNYODA AYOLLAR Ravshanbek Islambayev Ijtimoiy tadbirkorlik O‘zbekistonda ayollar orasida norasmiy bandlik muammolarini bartaraf etish vositasi sifatida	A WOMAN’S WORLD. A WOMAN IN THE WORLD Ravshanbek Islambayev Social entrepreneurship as a tool for solving the problems of informal employment among women in Uzbekistan	МИР ЖЕНЩИНЫ. ЖЕНЩИНА В МИРЕ Равшанбек Исламбаев Социальное предпринимательство как инструмент решения проблем неформальной занятости среди женщин в Узбекистане /107
O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI Xilolaxon Mustapova, Asadbek Sultonboyev Xo‘jand kelishuvi – Markaziy Osiyoda geosiyosiy barqarorlikning yangi pog‘onasi /111	UZBEKISTAN AND THE INTERNATIONAL COOMUNITY Khilolakhon Mustapova, Asadbek Sultonboev The Khujand agreement- a new stage of geopolitical stability in Central Asia	УЗБЕКИСТАН И МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО Хилолахон Мустапова, Асадбек Султонбоев Худжандское соглашение – новый этап геополитической стабильности в Центральной Азии
MA’NAVIYAT – KELAJAKKA ELTUVCHI YO‘L Shohruh Abdurasulov Zamonaviy o‘zbek teatr san’ati rivojida Chingiz Aytmatov asarlarining o‘rni /116	SPIRITUALITY IS THE ROAD TO THE FUTURE Shokhrukh Abdurasulov The role of Chingiz Aitmatov’s creativity in the development of contemporary theatrical art in Uzbekistan	ДУХОВНОСТЬ – ДОРОГА В БУДУЩЕЕ Шохрух Абдурасулов Место творчества Чингиза Айтматова в развитии современного театрального искусства Узбекистана
Xafiza Niyazova Zamondoshlar obrazi: muammo va yechimlar /125	Khafiza Niyazova Image of contemporaries: problems and solutions	Хафиза Ниязова Образ современников: проблемы и решения
FAN. INNOVATSIYALAR. TA’LIM Sevara Buranova Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni kognitiv faoliyatini rivojlantirish omillari /133	SCIENCE. INNAVATION. EDUCATION Sevara Buranova Factors of developing students’ cognitive activity in the educational process	НАУКА. ИННОВАЦИИ. ОБРАЗОВАНИЕ Севара Буранова Факторы развития познавательной активности учащихся в образовательном процессе

Viktoriya Alekseyeva
Ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv
rivojlanish: avlodlararo
tahlilning ahamiyati

«IJTIMOIY FIKR» RESPUBLIKA
JAMOATCHILIK FIKRINI
O'RGANISH MARKAZI
HISOBOTLARIDAN
O'zbekiston mustaqilligi – 34 yil
(jamoatchilik fikrini o'rganish
natijalari bo'yicha)
/145

SHAXS
**Akmal Saidov,
Georgiy Nikitenko**
Hayot kredosi – fanga xizmat
qilish Raxima Xodiyevna
Aminova tavalludining 100
yilligiga (1925-2025)

MUALLIFLARIMIZ
/157

Victoria Alekseeva
Social sustainability and
inclusive development: the
importance of intergenerational
analysis

FROM THE REPORTS OF THE
REPUBLICAN CENTER FOR THE
STUDY OF PUBLIC OPINION
“IJTIMOIY FIKR”
Independence of Uzbekistan –
34 years (according to the results
of a public opinion poll)

PERSONALITY
**Akmal Saidov,
Georgiy Nikitenko**
The credo of life – service to
science on the occasion of the
100th anniversary of the birth of
Rakhima Khodievna Aminova
(1925-2025)

OUR AUTHORS
/158

Виктория Алексеева
Социальная устойчивость
и инклюзивное развитие:
значение межпоколенческого
анализа
/137

ИЗ ОТЧЕТОВ
РЕСПУБЛИКАНСКОГО ЦЕНТРА
ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО
МНЕНИЯ «ИЖТИМОЙ ФИКР»
Независимость Узбекистана –
34 года (по результатам опроса
общественного мнения)

ЛИЧНОСТЬ
**Акмал Саидов,
Георгий Никитенко**
Кредо жизни – служение науке
к 100-летию со дня рождения
Рахимы Ходиевны Аминовой
(1925–2025)
/152

НАШИ АВТОРЫ
/159



O'zbekiston va jahon hamjamiyati



*Xilolaxon Mustapova
Asadbek Sultonboyev*

XO'JAND KELISHUVI – MARKAZIY OSIYODA GEOSIYOSIY BARQARORLIK- NING YANGI POG'ONASI

Zamonaviy dunyoda mintaqaviy hamkorlik mamlakatlar uchun barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bir-biriga mustahkam tarixiy-madaniy rishtalar bilan bog'lagan O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston bugun integratsiya va strategik hamkorlikning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda.

Tarix davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari doimo yaqin siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga ega bo'lib kelgan. Bugun mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lgan O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston tarixan chambarchas bog'langan. Bugun uch davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan strategik hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilib, mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. O'rta asrlarda bu uch mamlakat savdo, madaniyat va diplomatik aloqalarni rivojlantirgan Ipak yo'lining muhim qismi bo'lgan.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi davlatlararo hamkorlik so'nggi o'n yillikda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu davlatlar mustaqillikka erishgach, ko'p tomonlama munosabatlar izchil rivojlandi. Bugungi kunda iqtisodiyot, savdo, transport, xavfsizlik, madaniyat sohalarida hamkorlik jadal kengayib bormoqda. Xususan, uch mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi oshishi, strategik infratuzilma va energetika loyihalariga qo'shma sarmoya kiritilishi natijasida iqtisodiy hamkorlik mustahkamlandi. Mamlakatlar o'rtasidagi transport va savdo yo'laklari qulay va samarali bo'lib, integratsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, uch mamlakat o'zaro munosabatlarda jiddiy muammolarga duch keldi. 1991 yilda mustaqillikka erishgach, bu uch davlatning har biri muayyan siyosiy va iqtisodiy muammolarga duch keldi. Davlat chegaralari, suv va yer bo'yicha kelishmovchiliklar, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi tovarlarni tashish bilan bog'liq muammolar munosabatlarni murakkablashtirdi¹. Ayniqsa, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara muammolari juda ham og'riqli masala edi. Anklavlar, bahsli hududlar, etnik kesishmalar, suv va yo'llardan foydalanishdagi kelishmovchiliklar tinchlikka tahdid qiladigan minalar maydoniga aylangan



edi. Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida umumiy davlat chegarasi 972 kilometrni tashkil etadi². Chegara hududida Tojikistonning ikkita ekslav hududi Vorux va Qayrag'och mavjud³. Ikki davlat o'rtasida beshta chegara o'tish punktlari mavjud. Chegaraga yaqin hududlarida Qirg'izistonning 10 ta va Tojikistonning 13 ta qishloqlari mavjud⁴. Bu hududlar ko'p yillar davomida xavfli hududlar hisoblangan. 2022-yil sentabrdagi Botken qurolli to'qnashuvi artileriya, dron va zirhli texnika qo'llangan jang mintaqada nechog'li nozik vaziyat hukm surayotganini fosh etdi. O'nlab insonlar halok bo'ldi, yuzlab odam yaralandi, minglab aholi evakuatsiya qilindi⁵. Ushbu voqealar muammo shunchaki diplomatik xususiyatga ega emasligi, balki xavfsizlik uchun bevosita tahdidligini ko'rsatgan. Shundan so'ng ikki mamlakat maxsus xizmatlari rahbarlari – Qamchibek Tashiyev va Saymumin Yatimov yopiq formatda, bosqichma-bosqich muzokara olib borishni boshladi. Uch yil davomida sun'iy yo'ldosh xaritalari o'rganilib, anklav – Voruxning rasmiy maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi, hududlar almashinuvi mexanizmi ishlab chiqildi va betaraf transport yo'lagi ochildi. Bu shartnoma shunchaki majburiy kelishuv emas, balki ongli, yetuk fuqarolik pozitsiyasi ifodasidir. Jarayon ortida insonlar hayotini saqlab qolish, ishonchni qayta tiklash va barqaror kelajak yaratish umidi yotibdi. Natijada, 2025 yilning 13 martidan Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlari mamlakatlar o'rtasidagi davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi⁶. Tojikiston-Qirg'iziston chegarasida 2021 yildan beri yopilgan ikkita nazorat-o'tkazish punkti faoliyati qayta tiklandi. 14 martdan Bishkekdan Dushanbe va Xo'jandga aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, ikki mamlakatning chegaraoldi hududlari o'rtasida avtobus qatnovi tiklanadi. Muzokaralar yakunida Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlari jami 16 ta hujjat, jumladan, "Do'stlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yanada mustahkamlash to'g'risida" qo'shma deklaratsiya imzoladi. Savdo hajmini 500 million dollarga yetkazishga kelishib olindi va Markaziy Osiyo – Janubiy Osiyo – 1000 (CASA-1000) elektr energiyasini uzatish va savdosi loyihasini ishga tushirishni tezlashtirishga tayyor ekanligini bildirdi. Ushbu uchrashuvdan keyin Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida

davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida shartnoma tuzilishi kelishib olingan edi.

2025-yilning 31-martida Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahrida uch do'st va qardosh davlat rahbarlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon va Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovlar ishtirokida tarixiy Xo'jand sammiti bo'lib o'tdi. Tojikiston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "tarixiy hujjat" deb atash mumkin bo'lgan "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi Xo'jand deklaratsiyasining imzolanishi yana bir bor tinchlik qadriyatlarini va barcha mavjud muammolarni yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat, tushunish ruhida, muloqot yo'li bilan hal etish usullarini qo'llab-quvvatlashga undaydi. Ushbu shartnomani imzolagandan so'ng, davlat rahbarlari "bugundan boshlab uch davlat chegaralari abadiy do'stlik, chinakam yaxshi qo'shnichilik va konstruktiv sheriklik chegarasiga aylanishiga" ishonch bildirishdi⁷. Davlatimiz Rahbari tadbir davomida so'zlagan nuqtida aytganidek: "Bugun tariximizda ezgulik va hamjihatlikning yana bir yorqin sahifasi ochildi. Ildizi tutash uch xalq – o'zbek, tojik, va qirg'izni birlashtirgan, ularning tinchlik va do'stlik yo'lidagi azaliy intilishlarini aks ettirgan Do'stlik stelasining ochilishi nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo uchun ulkan ahamiyatga ega tarixiy voqeadir"⁸, – dedi. Bu o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy rivoji uchun tengma-teng hissa qo'shishga tayyorligini bildirmoqda.

Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi suv resurslarini taqsimlash, savdo-iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlikni ta'minlash kabi transchegaraviy muammolarni hal etishda muhim platforma bo'lib xizmat qildi. Markaziy Osiyo mintaqasi og'ir iqtisodiy sharoitlar va chegaralarni belgilash bo'yicha kelishmovchiliklar tufayli uzoq davom etgan muammolarni boshdan kechirgan. Ularni hal etish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar butun mintaqaviy uchun bebaho foyda keltiradi. Uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolangan nafaqat siyosiy, balki tarixiy-madaniy jihatdan ham muhim voqea sifatida baholanmoqda. Bu tarixiy sammit hisoblanib, mavjud chegara



va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha muammolar o'z yechimi topdi. Xususan, kelishuv natijasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida quyidagi yo'nalishlarda faol hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi: iqtisodiyot va savdo sohasida umumiy bozorlar, xorijiy sarmoyalarni kengaytirish va infratuzilma loyihalari, mintaqadagi suv resurslari va gidroelektr stansiyalaridan oqilona foydalanish, yangi tranzit yo'nalishlarini yaratish va yuklarni tashishni soddalashtirish, mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy, ta'lim va madaniy aloqalarni mustahkamlash, zamonaviy tahdidlarga, jumladan, terrorizm, giyohvand moddalar savdosi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash. Bu hamkorlik yo'nalishlari mamlakatlarning konstruktiv siyosati bilan yanada kengroq va samarali faoliyati yuritishi kutilmoqda. Uch tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini hisobga olsak, kelgusida mamlakatlar integratsiyasi yanada kengayishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbarining Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashuvida ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgani, tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 70 foiz oshgani qayd etildi. Energetika va transport kommunikatsiyalari sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, jumladan, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li qurilishini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi⁹.

Uch davlat rahbarining Xo'janddagi uchrashuvi, aytish mumkinki, katta bayramga aylanib ketdi. Chunki endi chegaralar bo'yicha nizolar yo'q, endi bir davlat askari ikkinchi davlat hududi tomon o'q otmaydi.

“Bugun xalqlarimiz uchun haqiqatan ham katta va uzoq kutilgan bayram. Biz uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi haqidagi tarixiy shartnomani imzoladik. Bundan buyon chegaralar – birodarlik chiziqlari, yangi imkoniyatlar, bunyodkorlik va hamkorlik makonidir”, – dedi Prezidentimiz Xo'jand sammitida¹⁰. Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvlarning yana bir muhim natijalari uch davlatning davlat chegaralari hududida qardosh davlatlar o'rtasidagi mustahkamlangan do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramziy Do'stlik majmuasining ochilishi bo'ldi. Bu yodgorlik tarixiy meros bo'lib,

mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Davlat rahbarlarining davlat chegaralarini delimitatsiya qilish borasidagi harakatlari mintaqa barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi, mamlakatlar aholisi farovonligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Chegaralarning ochilishi qo'shma dasturlarni amalga oshirish, mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoit yaratmoqda. Madrid avtonom universiteti Osiyo tadqiqotlar markazi professori Ispaniya sharqshunoslar uyushmasi bosh kotibi, turkshunos olim Xesus Xil mazkur kelishuv haqida quyidagi fikr bildirdi: “Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan uchrashuv qardosh davlatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik, ishonch va strategik sheriklikni rivojlantirishga intilishining yangi bosqichida namoyon bo'lmoqda. Bayram kunlari qo'shma konsert dasturlari tashkil etilishi, transport va savdo infratuzilmasini rivojlantirish taklifi bildirilishi fuqarolar turmush tarzini yaxshilash, yoshlar imkoniyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat”. Shuningdek, Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti katta ilmiy xodimi Li Yunxening fikricha mazkur uchrashuv O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim qadamdir. Do'stlik stelasi ochilishi qardosh davlatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik, ishonch va strategik sheriklik ramziga aylandi. O'zbekiston Prezidentining amaliy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari alohida e'tiborga loyiq. Birinchidan, yuqori darajadagi faol, ishonchli aloqa yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish va qo'shma loyihalarni ilgari surishga yordam beradi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi farovonligini oshirishda chegaradosh viloyatlar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni rivojlantirish muhim. Bojxona ob'ektlarini takomillashtirish, qulay savdo-logistika infratuzilmasini yaratish, uch tomonlama savdo maydonchasini yaratish bo'yicha takliflar juda o'rinni. Uchinchidan, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo'llab-quvvatlash, qo'shma investitsiya kapitalini bosqichma-bosqich ko'paytirish yangi ish o'rinlari yaratish va hudud raqobatbardoshligini



oshirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, transport tizimlarini rivojlantirish, jumladan avia reyslar chastotasini oshirish va yangi avtobus yo'nalishlarini ishga tushirish xalqlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, turizmni rivojlantirishda asqotadi. Nihoyat, "yashil" energiya va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, suv va ekologiya sohasidagi dasturlarni ilgari surish mintaqa barqaror rivojlanishi, ekologik muammolar hal etilishida muhim ahamiyatga ega. Xo'jand uchrashuvi nafaqat Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya va geosiyosiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, balki tarixiy ziddiyatlarning muloqot va muzokaralar orqali samarali hal etilishi mumkinligini amalda ko'rsatdi. Ushbu tarixiy sammit natijasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p yillik chegaraviy kelishmovchiliklarga huquqiy yechim topilib, uzoq davom etgan ishonchsizlik muhitini bartaraf etishga asos solindi. Biroq, Xo'jand uchrashuvining muvaffaqiyati bilan birga, kelgusida duch kelinishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xavotirlar ham mavjud.

Birinchidan, mintaqadagi suv resurslarini boshqarish va foydalanish, ayniqsa, transchegaraviy daryolar bo'yicha kelishuvlar doimo murakkab masala bo'lib kelgan. Suv tanqisligi va iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri kelajakda yana yangi kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Xo'jand uchrashuvi Markaziy Osiyoda do'stlik, ishonch va strategik hamkorlik ruhini mustahkamlab, mintaqaning tinch va farovon kelajagi uchun mustahkam poydevor qo'ydi. Ikkinchidan, iqtisodiy integratsiya jarayonida mintaqa davlatlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasidagi tafovutlar ba'zi sohalarda nomutanosibliklar va raqobat muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va umumiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlatlar o'rtasida uyg'un va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritilishi zarur bo'ladi. Shuningdek, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, xususan, terrorizm, ekstremizm va giyohvandlikka qarshi kurashda ham davomiy va samarali chora-tadbirlar talab etiladi.

¹ A. Moraczewska. (2010). The Changing Interpretation of Border Functions in International Relations. *Revista Română de Geografie Politică*, [e-journal], 12(1):329-340.

² Аламанов.С.К. Анклавы в Центральной Азии. Постсоветские исследования. Т. 1. № 5 (2018). – С.451.

³ Reeves, Madeleine: *Border Work: Spatial Lives of the State in Rural Central Asia*, Cornell University Press, 2014, – P. 241-250.

⁴ Аламанов С.К. Краткая история и опыт решения пограничных проблем Кыргызстана. Бишкек, 2005

⁵ Starr, S. Frederick. *Ferghana Valley: the heart of Central Asia* / edited by S. Frederick Starr, Baktybek Beshimov, Inomjon I. Bobokulov, and Pulat Shozimov. New York.2011

⁶ Кыргызстан менен Тажикстандын ортосундагы кыргыз-тажик Мамлекеттик чекарасы жөнүндө келишим ратификацияланды. Онлайн по адресу: <https://president.kg/kg/news/21/38975>

⁷ “Важный шаг к региональному благополучию и развитию”. Онлайн по адресу: <https://tguk.tj/index.php/tj/habarho-5/item/4980-vazhnyj-shag-k-regionalnomu-blagopoluchiyu-i-razvitiyu.html>

⁸ “O'zaro tutash uch ildizni qayta bog'lagan tarixiy muloqot”. Available at: <https://gov.uz/uz/wcu/news/view/43259>

⁹ “Ellarni, dillarni birlashtirgan uchrashuv” Available at: <https://yuz.uz/uz/news/ellerdi-keoillerdi-birlestirgen-ushraso>

¹⁰ “Ellarni, dillarni birlashtirgan uchrashuv” Available at: <https://yuz.uz/uz/news/ellerdi-keoillerdi-birlestirgen-ushraso>

REZYUME

Hilolaxon MUSTAPOVA, Asadbek SULTONBOYEV

XO'JAND KELISHUVI – MARKAZIY OSIYODA GEOSIYOSIY BARQARORLIKNING YANGI POG'ONASI

Mazkur maqolada O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi nafaqat siyosiy ahamiyatga ega, balki tarixiy-madaniy jihatdan ham muhim



voqea ekanligi tahlil qilingan. Ushbu sammit Markaziy Osiyo geosiyosiy pozitsiyasida muhim rol o'ynab, chegara va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha muammolarga yechim topdi. Iqtisodiyot, savdo, sarmoya, infratuzilma, suv resurslari, tranzit, ilmiy, ta'lim, madaniy aloqalar va xavfsizlik sohalarida hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilganligi ta'kidlangan. "Do'stik" stelasining ochilishi qardoshlik ramzi sifatida qayd etilgan. Uch tomonlama hamkorlikning jadal rivojlanishi mintaqa integratsiyasini kengaytirish, sanoat, qishloq xo'jaligi va innovatsion texnologiyalar sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shuningdek, uchrashuv mintaqada ishonchli hamkorlikning yangi davrini boshlab bergani, o'tmishdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: anklav, xavfsizlik zonasi, delimitatsiya, integratsiya, geosiyosat, infratuzilma, tranzit, suv resurslari, transchegaraviy muammolar.

SUMMARY

Hilolakhon MUSTAPOVA, Asadbek SULTONBOEV

THE KHUJAND AGREEMENT – A NEW STAGE OF GEOPOLITICAL STABILITY IN CENTRAL ASIA

This article analyzes the signing of the agreement on the junction point of the state borders of Uzbekistan, Tajikistan, and Kyrgyzstan, emphasizing that it is not only politically significant but also an important event from a historical and cultural point of view. This summit plays a crucial role in the geopolitical position of Central Asia, finding solutions to problems related to borders and the use of water resources. It is emphasized that cooperation in the fields of economy, trade, investment, infrastructure, water resources, transit, science, education, cultural ties, and security has reached a new level. The opening of the "Dustlik" (Friendship) stele is noted as a symbol of kinship. The rapid development of trilateral cooperation is shown to be able to expand regional integration and create new opportunities in the fields of industry, agriculture, and innovative technologies. It is also concluded that the meeting launched a new era of reliable cooperation in the region, aimed at eliminating past problems.

Keywords: enclave, security zone, delimitation, integration, geopolitics, infrastructure, transit, water resources, transboundary problems.

РЕЗЮМЕ

Хилолахон МУСТАПОВА, Асадбек СУЛТОНБОЕВ

ХУДЖАНДСКОЕ СОГЛАШЕНИЕ – НОВЫЙ ЭТАП ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

В данной статье анализируется вопрос государственных границ Узбекистана, Таджикистана и Кыргызстана на примере подписания соглашения, которое является не только политически значимым, но и важным событием с исторической и культурной точек зрения. Этот саммит играет ключевую роль в геополитическом положении Центральной Азии, находя решения проблем, связанных с границами и использованием водных ресурсов. Подчеркивается, что сотрудничество в областях экономики, торговли, инвестиций, инфраструктуры, водных ресурсов, транзита, науки, образования, культурных связей и безопасности вышло на новый уровень. Открытие стелы «Дустлик» (Дружба) приводится в качестве символа родства. Отмечено, что стремительное развитие трехстороннего сотрудничества способно расширить региональную интеграцию и создать новые возможности в областях промышленности, сельского хозяйства и инновационных технологий. Также делается вывод, что встреча положила начало новой эре надежного сотрудничества в регионе, направленной на устранение прошлых проблем.

Ключевые слова: анклав, зона безопасности, делимитация, интеграция, геополитика, инфраструктура, транзит, водные ресурсы, трансграничные проблемы.

